

TONG YULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
4-iyul
N:27
(66828)

ISSN - 2010-6092

ISTIQLOL TENGDOSHI

Jahongir SHUKUROV
Oliy o'quv yurtlari talabalari
va kollejlarda o'quvchilari o'rtasida
e'lon qilingan «Talabalarning eng
yaxshi innovatsion loyihasi»
tanlovi g'olibi bo'ldi.
Uning xazonlarni qayta
ishlash orqali tayyor
mahsulot ishlab
chiqarish bo'yicha
tuzgan biznes loyihasi
bilan gazetamizning
navbatdagi sonida
tanishasiz.

FARIDA



Surxondaryolik Farida Toshpo'latova ham bu yilgi zulfiyachilar safidan munosib o'rin olgan qizlarimizdan. Adabiyotning she'riyat yo'nalishida ijod qilayotgan tengdoshingizning «Istarasi issiq yurt» nomli she'riy to'plami chop etilgan. Uning ijodida yurt madhi, Vatan mehri mavzusi yetakchilik qiladi.

Izlanuvchan, intiluvchan qizimiz 2009-yili Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilgan «Men va mening huquqlarim» respublika bolalar forumida «Mening Konstitutsiyam» mavzusidagi inshosi uchun I-o'ringa sazovor bo'ldi.

Tuman gazetasi qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagining faol a'zosi bo'lgan bu yosh qalamkashning ijod namunalari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Turkiston», «Tong yulduzi», «Gulxan», «Yoshlik», «Surxon tongi» kabi gazeta va jurnallarda ham o'qishingiz mumkin.

O'zi tahsil olayotgan Denov tumanidagi 79-umumta'lim maktabida «Kamolot» YOIH boshlang'ich tashkilotining Sardorlar Kengashi yetakchisi sifatida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda tashabbuskorlik ko'rsatadi.

Maktabni muvaffaqiyatli tamomlagan Faridaga, mustaqil hayotga qo'ygan ilk qadaming qutlug' bo'lsin, deymiz!



Ta'til gashti

Kozim O'LIMASOV olgan surat.



1. Hasan akani nima hayron qoldirdi?
2. Mir Ibrohim nega shoir zonadonidan katib qoldi?
3. Shohquli kim?
4. Alisher Navoiyning himmati.
5. Shohquli ko'rnamaklik qildi.
6. Shukr qilmagan — xor-u zor bo'ladi.
7. Kechirimli bo'lish mardning ishi.
8. Ko'r ko'zning ochilishi.

Zamonaviy, qulay «Nasaf» yo'lovchi poyezdi bilan Toshkentga qaytayotgan edik. To'rt kishilik ozoda, shinam kupeda Hasan aka degan kishi men bilan yonma-yon o'tirib qoldi.

Tanishganimizdan so'ng, gap orasida o'g'li Botirning adabiyotga o'ta qiziqishini aytdi. Bir kuni u Hazrat Navoiyning farzandi bor-yo'qligi haqida so'rab qolibdi. «Men o'g'limga shoir uylanmagan, farzandi bo'lmaganini aytdim», dedi Hasan aka to'g'ri javob beribmanmi, degan ohangda.

U zotning farzandlari bo'lgan, dedim men. Hasan aka hayron bo'lib: «Shunisini bilmas ekanman», dedilar. Men hikoyamni boshladim.

* * *

Hirotda podshoh Husayn Boyqaroning muhtasham saroyida nazm va musiqa kechalari tez-tez o'tkazib turilar, bunday kechalarda xalq tiliga tushgan shoirlar, mashshoqlar ham ishtirok etib, hunarlarini namoyish etishardi.

Bir kuni iroqlik g'ijjakchi yigit ajib-ajib kuylar chalib, hammani qoyil qoldirdi.

Hazrat Navoiy iste'dodli yoshlarni qo'llar, ular uchun madrasalar barpo etib, o'z hisobidan, hatto maosh ham tayinlab qo'ygan edi. Yana bir tomoni, shu kunlarda ulug' shoir o'z o'g'li sifatida qabul qilgan Mir Ibrohimning otanonasi yoniga ketib qolganidan, bir narsasini yo'qotgan kishidek sarxush holatda edi. Bazm tugartugamas Shohqulining ijarada, turli joylarda g'aribona hayot kechirishini bilib, unga o'z uyidan joy berishni diliga tugdi.

Mir Ibrohim haqida ikki og'iz ma'lumot berib o'tadigan bo'lsak,

NAVOIYNING «O'G'LI»

aytish kerakki, u Alisher Navoiyning akasi Bahlulbekning nevarasi bo'lib, otasining ismini Kamoliddin der edilar. Bularning har ikkisi ham xurosonlik temuriyzo-da amirlar bo'lib, Husayn Boyqaroning ishongan odamlari edi. Amir Bahlulbek o'sha vaqtda Xuroson davlatiga qarashli Xorazmni idora qilishga ketayotib, nevarasi Mir Ibrohimni ulug' shoirga, ya'ni ukasi Hazrat Navoiyga farzand sifatida qoldirgan edi. Lekin Amir Kamoliddin ham Xorazmga ishga jo'natilgach, Mir Ibrohimning ortidan odam yuborib, onasining sog'inganini bahona qilib, o'g'lini chaqirib oladi. Bundan shoir hiyla ranjydi, boisi, shoir zukko, aqlli Mir Ibrohimga o'rganib qolgan, uning she'rlar mashq qilayotganidan suyunib, hatto uni bir umr o'z farzandi kabi tarbiya qilib, zamonasining ilm-dor kishilari qatoriga qo'shishni orzu ham qilgan edi. U ketgach, to'ldira olmay, anchayin sarxush holatda qoldi. Tarixiy manbalarining guvohlik berishicha, Navoiy Hazratlari Mir Ibrohimni ko'rish uchun hatto Xorazmga borishni ko'zda tutgan, ammo ma'lum sabablarga ko'ra, bu reja amalga oshmay qolgan.

O'sha kundagi bazmda esa Shohqulini ko'rib, zora shuni o'g'li qilib olib, xotirjam tortsam, degan fikrni xayolidan o'tkazadi va bu ishni orqaga surmay ishga kirishib, uning odob-axloqi, holati haqida so'rab-surishtiradi, nihoyat, uning o'zi bilan uchra-

Tariximizni o'rganamiz

shib, bamaylixotir suhbatlashadi. Shohquli o'g'li bo'ladigan, Hazrat Navoiy uning tarbiyasi, obro'e'tibor topishi, san'at sohasida parvozida yordam beradigan bo'ladi. Shunday qilib, g'aribona hayot kechirib, qiynalib yurgan Shohquli ertaklardagi kabi o'zini jannatga tushib qolganek his etadi va aslida ham u endi biror narsaga zoriqmay shohona hayot kechira boshlaydi.

Oradan kunlar o'tdi. Hirotda Shohquli haqida bir-biridan qiziq mish-mishlar urchib boshladi:

Mashshoq:

— Eshitdinglarmi, Amir Navoiy Hazratlarining tutingan o'g'li Shohquli ajoyib kuylar yaratibdi, tinglab, mazza qildik.

Qo'shni:

— Unga amaldorlar ham ta'zim qilishmoqda.

Fitnachi:

Shoirning hurmati uchun-da!

Amaldor:

— Juda kekkayib ketibdimi Shohquli? Menga oyog'i bilan yo'l ko'rsatmoqchi bo'ldi-ya! Xizmatkorlarni ham mensimay qo'ygan u.

Odam degani o'z boshiga falokat olib keladi. Shohquli boshiga qo'ngan baxtga shukr qilish o'rniga, manmanlikka berildi. Turgan gapki, bunday insonning qanoti tezda qayriladi. O'ziga va mahoratiga bino qo'ygan g'ijjakchi yigit Hazrat Navoiyning non-tuziga ham ko'rnamaklik qilib, zarda bilan uydan chiqib ketadi. Uning xurmacha qiliqlaridan bezor bo'lgan Hirotda ahlining ham yigitdan ko'ngli sovidi. Shunday qilib, berganiga shukr qilmagan Shohquli yana xor-u zorlikda kun kechira boshladi.

Afsuski, Peshona devorga taq etib tekkach, ko'r ko'z yarq etib ochiladi. Ijarama-ijara yurish, xalqning mehridan qolgani Shohqulini juda katta azob-uhubatlariga duchor etdi va bu ahvolda uzoqqa borolmasligini tushunib, Hazrat Navoiyning pokiza etagini ko'ziga surtishga majbur bo'ldi.

«Kechirimli bo'lish mardning ishi». Alisher Navoiy juda kechirimli, saxovatpesha, mo'min inson emasmi, Shohquliga rahmi kelib, uning gunohidan kechdi.

O'sha zamonning mashhur tarixchisi Xondamirning yozishicha, u yana ajib kuylar bastalab, ud, g'ijjak va qo'biz chalib, xalqning, Alisher Navoiyning e'tiborini qozona boshlagan.

To'lqin HAYIT



KITOB CHOP ETISH IXTIROSI

Kitob nusxalarini ommaviy ravishda ko'paytirish ishini ilk bor XV asrning 40-yillarida Germaniyada Iogann Gutenberg (1500-1568y.y) amalga oshirgan.

TAVOCHI — HARBIIY AMALDOR



Bu lavozim egalari lashkar yig'ish, qo'shinni ko'rikka tayyorlash, qamal vaqtida aholini shaharga ko'chirib olib kirish vazifalarini bajarishgan. Ular har bir ishni sidqidildan, mohirona bajarishlari bilan boshqalardan ajralib turganlar. Shuning uchun bu lavozimga eng bilimdon va ishonchli kishilar tayinlangan. Bilimdon har yerda kerak, ishonchli inson bo'lish esa hammaning ham qo'lidan kelavermaydi.

ZAYNIDDIN VOSIFIY


Zayniddin ibn Abdjalil Vosifiy 1486-yilda tug'ilgan. 1566-yili Toshkentda vafot etgan. Uning yagona «Badoyi' ul-vaqoyi» badiiy-tarixiy asari bizgacha yetib kelgan.

AHOLISI QANCHA?

Bu savol ham sizni qiziqtiradi, albatta. 2009-yildagi ma'lumotlarga qaraganda, Yaponiyaning 127,8 mln. aholisi bo'lib, shundan 99,4 foizi yapon tilida so'zlashadi.

127.8

TATABBU



She'rlar mashq qilayotgan bolalar bu so'zning ma'nosini albatta bilishlari kerak. Tatabbu-niing asl ma'nosi — biror narsaning ketidan tushish, izidan borib tekshirish. Lekin she'riyatda o'xshatma, nazira sifatida qo'llaniladi.

Yozgi ta'tilni qadrdon maktabida o'tkazayotgan tengdoshlaringizga rosa mazza bo'ldi-da! Nega, deysizmi? Negaki, ular uch oy mobaynida sinfdoshlari va ustozlarini sog'inib qolmasdan, barchalari birgalikda mazmunli hordiq chiqaryaptilar.



MAKTABDAGI OROMGOH nimasi bilan o'quvchilarga manzur?

Poytaxtimizdagi 274-maktab qoshida ochilgan «Qaldirg'och» nomli oromgohda mustaqilligimizning 20-yilligi munosabati bilan «Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!» shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda Ma'naviyat targ'ibot markazi Yunusobod tumani bo'limi yetakchi mutaxassisi Ma'mura Eshnazarova «Sog'lom avlod» jamg'armasining tuman bo'limi rahbari Muhabbat Ibragimova, «Mahalla» jamg'armasi tuman bo'limi bosh mutaxassisi Gulmira Shorustamova, «Oqtepa» mahallasi oqsoqoli Nuriddin Jalolov va boshqalar ishtirok etishdi. Dam oluvchilarga mahalla maslahatchisi Gulchehra Karimova, o'smirlar narkologi Farida Otamirzayeva gijohvandlik va uning salbiy oqibatlariga haqida hayotiy misollar bilan so'zlab berishdi.

«Biz sog'lom turmush tarzini tanlaymiz!» mavzusida o'tkazilgan rasmlar tanlovida Robiya Mamatova, Ziyoda Qodirova faxrli o'rinni egallashdi.

– Birinchi mavsumda oromgohda 120 nafar o'quvchi dam oldi, – deydi oromgoh boshlig'i Nodira Ismoilova. – Ikkinchi mavsumda dam oluvchilar uchun «Mohir qo'llar», «Yosh informatiklar» hamda sport to'garaklari ishlab turibdi. Ularning madaniy hordiq chiqarishlari uchun shoir va yozuvchilar, o'quvchilarning

sevimli nashrlari «Gulxan», «G'uncha» jurnallari, «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlari hamda Axborot resurs markazi xodimlari bilan uchrashuvlar tashkil etilmoqda. Tarbiyachilar Qumri Usmonbekova, Muyassar Yo'ldosheva, Iroda Mahkamova, bosh yetakchi Nodira Jalilova ishtirokida har kuni turli tadbirlar o'tkazilishi ayni muddao bo'lyapti.

Ana shunday uchrashuvlar o'quvchilarga juda manzur bo'layotganini Yunusobod tumani Axborot-resurs markazi rahbari Zamira Zaynutdinova o'z so'zlarida aytib o'tdilar:

– Yozgi ta'tilda maktabdagi oromgohda dam olayotgan o'quvchilar bilan ko'plab uchrashuvlar tashkillashtirmoqdamiz. Ushbu uchrashuvlarda O'zbekistonda kitobat tarixi, inson hayotida kitobning o'rni, tuman Axborot-resurs markazining ish faoliyati haqida viktorina o'tkazaymiz. Mana bugun ham viktorina savollarimiz orqali o'quvchilarning juda bilimdon va zukkoliklarini aniqlab oldik.

Darhaqiqat, turli uchrashuvlar orqali bilimlarini boyitayotgan bu o'quvchilar yozgi ta'tillarini maroqli o'tkazayotganidan baxtiyor edi.

Gulyuz BAHODIR qizi



Suratlar muallifi: Zuhra MUHSIMOVA

rafiqam yalt etib men tomonga qaradi.

– Shu do'nglikni tekislab qo'y-madingiz-da.

– Safardan qaytay, birinchi galda shu ishni qilaman. Tunov kuni mahalla oqsoqoliyam aytuvdi.

Ochiq gap, safaroldi biroz kayfiyatim

OQSOQOLNI LOL QILDI

buzildi. Ammo ayb o'z zimda. O'tgan yili qurilish qilganimda, ishlatilgan tuproqning bir qismi qolib ketuvdi. Shuni biror joyga tashlab kelishga hafsala qilmayotgandim...

Aksiga olib xizmat safarim ham biroz cho'zildi.

Uyimiz tomon burilar ekanman, endi o'zimga ham xunuk ko'rinadigan tuproqtepa ko'zimga ko'rinmaganidan hayron bo'ldim. Unga kirishim bilan birinchi so'raganim ham shu bo'ldi: tuproq qani?! Yana mahalladagilar hashar qilib tozalashgan bo'lishsa-ya, degan xavotirda edim.

– O'zimiz tinchitdik, – deyishdi uydagilar kulib.

Ma'lum bo'lishicha, o'g'lim sinfdoshi bilan tuproqni nima qilsak ekan, deb turishganida, mahalla oqsoqoli uni tashib yurmasdan, loy qorib, g'isht quyishni maslahat beribdi. Bu taklif bolalarga ma'qul bo'lgach, o'zi g'isht qolip va biroz qum keltirib beribdi. So'ngra esa loyni qanday qorish, g'ishtni chiroyli quyishni o'rgatibdi. Agar ko'ngildagiday chiqsa, barini o'zi sotib olishga va'da ham beribdi. Bu ish o'g'lim bilan o'rtog'iga shu darajada yoqib qolibdiki, ikki kunga qolmay bor tuproqni chiroyli, bir tekis g'ishtlarga aylantirishibdi. G'ishtlar qurigach, yangi qurilayotgan mahalla guzariga ishlatish uchun olib ketishibdi. O'g'lim bilan o'rtog'i ham quruq qolmabdi. Eng qizig'i, shu ishlardan keyin o'g'lim birdaniga ulg'ayib qolgan edi. Ertalab barvaqt uyg'onadi, oyisi ko'chani supurib bo'lgach, suv sepadi. Hovlimizdagi bor daraxtlarni oqlab chiqibdi. Kichkina tomorqamizda birorta ham begona o't qolmadi. Har kuni ishdan qaytishimga o'g'lim albatta meni xursand qiladigan biror-bir yumushni bajarib qo'yadi.

Yusuf ABDULLAYEV



MEN «YOSHLIK»DA DAM OLDIM

Men yaqinda Chorvoq suv ombori bo'yida joylashgan «Yoshlik» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida dam olib qaytdim.

Biz tarbiyachilarimiz boshchiligida tanlovlarda faol qatnashib, bir necha bor g'olib bo'ldik.

Eng asosiysi, oromgohda ko'plab do'stlar orttirdim. Hozir ular bilan xat yozishib turibmiz. Mamlakatimizda biz bolalar uchun shunday sharoitlar yaratib berilganidan juda xursandmiz.

Avazbek SHERMATOV,
Toshkent shahridagi
114-maktabning 6-«D» sinf
o'quvchisi



(Hikoya)

Ertalab barvaqt uyg'ondim. Safarga otlanganim bois narsalarimni bir qur ko'zdan kechirdim. Hovlida nonushta qilayotganimizda, ko'cha tarafdan mahalla oqsoqolining kim bilandir baland ovozda gaplashayotgani eshitildi. Choy quyayotgan

IMKONIYATLAR MAMLAKATI

O'zbekiston ulkan imkoniyatlar mamlakati. Chindan-da, bugungi yoshlarimiz uchun joylarda barcha sharoitlar, keng imkoniyatlar yaratilgan. Ulardan unumli foydalanayotgan yoshlarimiz esa talaygina. Birgina «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyatiga nazar tashlar ekanmiz, undagi iqtidorli, tirishqoq, yetakchi, shu bilan birga, ijodkor o'g'il-qizlarni ko'rib, havasimiz keladi.



Sirojiddin G'ULOMIDDINOV,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
16-maktab o'quvchisi:

«ENG FAOL VA NAMUNALI»
ana shunday ko'krak nishoni bor

– Yodimda, hali maktabga bormasimdan yozish-chizishni o'rganib olgan edim. Gazeta-jurnallarni o'qishni yoqtirardim. Keyinchalik mening ham she'r va maqolalarim «Xorazm yoshlari», «Xorazm haqiqati», «Xorazm ziyokori» gazetalarida birin-ketin bosilib turdi. Bu esa menga chin ma'noda qanot bag'ishladi va «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivaliga yetakladi. 2009-2010-yillarda turli bosqichlarda ishtirok etib, sertifikat va dip-

lomlar sohibi bo'ldim. Maktabda o'tkazilgan bilimlar sinovida faxrli o'rinni egalladim va «Eng faol va namunali o'quvchi» ko'krak nishoni bilan taqdirladim.

Ayni paytda viloyat «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining «Kamalak» bolalar tashkiloti Sardorlar Kengashi «Sog'lom avlod» yo'nalishi sardori vazifasida faoliyat olib bormoqdaman. Shu bilan birga, maktabda Sardorlar Kengashi raisi vazifasini ham baholi qudrat olib boryapman.

Sitora ABDULLAYEVA,
Sirdaryo viloyati Sardorlar Kengashi raisi:

– Men Guliston shahridagi 11-umumta'lim maktabining 8-sinfini a'lo baholar bilan tamomladim. Viloyat «Kamalak» bolalar tashkilotida «Ma'naviyat va ma'rifat» yo'nalishi sardori vazifasida faoliyat yuritdim. Yaqinda esa viloyat Sardorlar Kengashi raisi etib saylandim. Jurnalistika sohasiga ham befarq emasman. «Tong yulduzi», «Sirdaryo haqiqati», «Davr yoshlari», «Molodej Uzbekistana» gazetalarini sevib o'qiyman va o'z maqolalarim

Feruza SOYIBJON qizi

«KAMALAK EKSPRESS»

loyihasi amalda

bilan qatnashib turaman.

Maqsadim, tashkilot a'zolari sonini bundan-da, ko'paytirish, iste'dod egalarini izlab topish maqsadida «Kamalak ekspres» loyihasini yanada jonlantirishdir.

Adiblar bolalarga



Abduazimning bog'cha opasi kecha ularga uy vazifasi bergandi:

– Uyda O'zbekiston bayrog'i rasmini chizib, bo'yab kelasizlar. Kimning bayrog'i chiroyli chiqsa, tanlovga qo'yamiz.

Abduazim hafsala bilan bayroq rasmini chiza boshladiki, deraza tokchasiga oppoq chinni Kabutar kelib qo'nganini ham sezmay qolgan. Kabutarining «g'uv-g'uv»idan boshini ko'tarib, hayron bo'lib unga tikildi.

– Abduazimboy, – dedi tilga kirib, – Kabutar rasmini chiroyli chizar ekansan.

– Voy, gapirishni ham bilasanmi? – Abduazimning hayrati oshdi.

– Hov sen bilan birga bog'chaga boradigan Aziz borku, o'sha menga gapirishni o'rgatdi. U men bilan o'rtoq bo'ldi, don, non ushoqlaridan berdi. Patlarimni silab, erkaladi.

– Men ham sen bilan o'rtoq bo'laman, – Abduazimning mehri tovlandi. Kabutarga yaxshilik qilgisi keldi. Men chizayotgan

bayrog'ingni tomosha qilgani keldim.

– Mayli, ko'raqol, – dedi Abduazim. – Bizning O'zbekiston bayrog'imiz to'rt xil rangda. Qaragin, qanday chiroyli chiqdi. Bayrog'imiz tinchlik, farovonlik ramzi.

– Suratingni menga ber, – Kabutarining bayroqqa havasi keldi.

– Voy, men uni bog'chaga olib boraman deyapman-ku.

– Olib borasan. Hozir esa men bayroqni osmonga olib chiqaman.

– Mayli.

Kabutar Abduazim chizgan bayroqni jajji tumshug'ida tishlab, osmon-u falakka ko'tarildi, tevarak atrofida parvoz qilayotgan qushlarga ko'z-ko'z qildi.

Ular bayroqni o'pib, balandbalandlarga parvoz qildilar. Feruza ko'kada raqsga tushdilar.

Abduazim ularni pastdan tomosha qilib turdi, shodligi yana ham toshdi. Ertaga, bog'chada bo'ladigan tanlovda g'olib bo'lsa ham, ajab emas.

Abdulhay NOSIROV

MAFTUNKOR
SURXONIM

Mustaqilligimizning yoqimli shabadas esayotganiga ham 20 yil bo'libdi. Mustaqillik bizga ham ma'naviy, ham madaniy, ham moddiy jihatdan yuksalish imkoniyatini berdi.

Tunov kuni oilamiz bilan Termiz ota ziyoratgohiga bordik. U yerdagi o'zgarishlarni ko'rib, hayratga tushdik, dilimizda faxr tuyg'usini his qildik. Buvijonim bizga Hadislarining mazmunini so'zlab berdilar va ko'zlariga yosh olib, mustaqillikka shukronalar aytdilar.

Biz yoshlar kelajak poydevorimiz. Poydevor qancha mustahkam bo'lsa, uni hech kim yiqita olmaydi. Mustahkam

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

poydevor bo'lish uchun esa ezgulik va taraqqiyot yo'lida izlanishimiz dardkor.

Bugungi O'zbekistonim – faxrim mening. Aslida bunday yurtda yashashning o'zi katta baxt.

Termiz shahrining bu qadar chiroy ochganini Prezidentimiz ham e'tirof etdilar. Bu esa biz voha xalqini yanada ilhomlantirdi va shu yurtga munosib farzand bo'lishga chorladi.

Komilaxon ABDUXOLIQOVA,
Jarqo'rg'on tumanidagi 2-umumta'lim
maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi



– Muxlisa, ko'chada o'ynaysanmi, bolalar maydonchasida arg'imchoq uchamiz, yuraqol, – dugonasi har kuni uni ko'chada o'ynashga chaqirardi, ammo Muxlisaning javobi doimo bir xil:

– O'ynamayman, vaqtim yo'q, o'zing boraver.

– Uyda nima qilasan, qarashib yuboraymi? – dedi bir kuni dugonasi.

– Mayli, – dedi-yu, uni o'z xonasiga taklif qildi.

TA'TILDA

Muxlisa chala qolgan rasmini chizishga kirishdi. Uning berilib ishlayotganini ko'rgan dugonasi Muxlisa-ga havas qildi.

So'ng, ikki dugona plastilindan turli ertak qahramonlarini yasashdi va ularning rasmlarini chiza boshlashdi.

Muxlisa Habibul-

layeva Chilonzor tumanidagi 586-chet tillariga ixtisoslashtirilgan maktabning 2-sinfini muvaffaqiyatli tamomladi. Qizaloqning ayni ta'til kunlarida ham sira tinimi yo'q. Dugonalar bilan rasm chizadi, badiiy kitob o'qiydi, taassurotlarini o'rtoqlashadi.


Jajji Muxlisaning chizgan rasmlarini Siz ham ko'ring va o'zingiz baho bering.

OLMOS



Ulug' ajdodlarimiz asrlar davomida ilm, fan, madaniyat, siyosat, qo'yingchi, barcha sohalarida dunyoni hayratga soladigan ulkan ishlarni amalga oshirib kelganlar. Biz ana shunday buyuk ajdodlarning munosib avlodlarimiz. Yurtimiz mustaqilligi o'zligimizni anglash, an'ana va qadriyatlarimizni tiklash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallash imkonini bergani uchun ham benihoya aziz va qadrlidir. Ayniqsa, yoshlarimiz uchun berilayotgan keng imkoniyatlar, yaratilayotgan shart-sharoitlarni alohida e'tirof etish joiz.

Bo'lar bola boshidan, deganlaridek, o'g'lidagi san'atga bo'lgan ishtiyoqni bolaligidanoq payqagan onasi uni Glier nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa akademik litseyiga o'qishga berdi. Aslida bolakaydagi qo'shiqchilikka bo'lgan havas san'at ixlosmandi bo'lgan onasi Tuhfaniso opaning ta'sirida uyg'ongan bo'lsa, ajabmas. Ahror Usmonov, Otabek Muhammad-zohid qo'shiqlarini maroq bilan tinglash, xirgoyi qilish barobarida qalbidagi havas aniq maqsadga aylangan Sherzodbek litseyning xalq cholg'ulari bo'limida g'ijjak sozi bo'yicha tahsil oldi. Ota-ona o'g'lining kelajakda mohir sozanda bo'lishini istashardi. Ammo undagi qo'shiqchilikka bo'lgan havas ustunlik qildi. Ilk taronasi «Sog'inch» qo'shig'ining so'zini o'zi yozib, kuyini ham o'zi bastaladi. Keyinchalik uni turli tadbirlarga, bayramlarga taklif qilishdi. Shu tariqa estrada muxlislari orasida Sherzod-BEK bo'lib tanildi. Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan davlat



SAN'ATDAN SAODAT

Ajoyib sozi, xushovozi, yangi navosi bilan san'at muxlislari e'tiboriga tushib kelayotgan Sherzodbek Ortiqov ham istiqlol bergan imkoniyatlardan ruhlanib, san'at olamiga qadam qo'yayotgan iqtidorli yoshlarimizdan.

zod-BEK. – Shuningdek, san'at yo'lidagi ustozim – onajonimning orzularini ham ushaltirish niyatidaman.

Biz ham san'at yo'lidan saodat izlab, maqsad sari intilayotgan yosh iqtidorga baland parvozlar tilab qolamiz.

tadbirda «Dildor biladi» qo'shig'i bilan qatnashdi. «Turkiston» saroyida o'tkazilgan «Mardu maydon» musiqiy festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jonli ijroda ilk bor o'tkazilgan mazkur festival unga o'z iste'dodini yana bir marta sinovdan o'tkazish imkonini berdi. 2010-yil davomida «O'zbeknavo» birlashmasi tomonidan ajratilgan 100 ming so'mlik stipendiya olishga muvaffaq bo'ldi hamda «Iqtidorli estrada xonandasi» sertifikatini bilan taqdirlandi.

– Menimcha, har bir san'atkor o'z imkoniyatlarini qo'shiqchilikning barcha yo'nalishlarida sinab ko'rishi lozim, deb o'ylayman. Men ham kelajakda maqom yo'nalishida qo'shiq kuylashni maqsad qilganman, – deydi ayni damda estrada yo'nalishida sermahsul ijod qilayotgan Sher-

SEVDIM, YANA GO'ZAL BO'LDI U...



Shu Vatanni sevaman jondan, Sevdim, yana go'zal bo'ldi u...

Vatan! Onam kabi muqaddas, aziz. Munisam singari tanho, yagona. Butun borlig'im bilan unga talpinaman, tafti qalbimni quyoshdek ilitadi.

Mustaqillik mening taqdirimda qanday o'rin tutadi? Bu savolni yurtimizning har bir fuqaro, ayniqsa, biz yoshlar o'zimizga berib ko'rmog'imiz lozim.

Mustaqillik har birimiz uchun, avvalo, erkinlik berdi. Erkinlikki – ijod, so'z, fikr erkinligi. Men ham ko'plab ijodkor tengdoshlarim kabi yanada ko'proq ijod qilishga intilyapman. Ijtimoiy-madaniy mavzularda maqolalar yozish bilan birga, ingliz va nemis tillaridan bir

qator yozuvchilarning asarlarini erkin tarjimalar qilyapman. Turkum hikoyalar jamlangan ilk tarjima kitobim chop etilish arafasida.

Endilikda bizning nodir asarlarimizni xorijliklar ham o'qislar, degan niyatda o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga kirishdim.

Joriy yilning boshida «Kamolot» YOIH – kelajak tayanchi shiori ostida tashkil qilingan faollar maktabida liderlik qobiliyatimni namoyon qilib, sertifikat bilan taqdirlandim. Men kabi yoshlarning o'qishdagi muvaffaqiyati, jamoat ishlaridagi faolligi, ilmiy-ijodiy iqtidori, kasbiy intiluvchanligining rag'batlantirib borilishi ham, barcha-barchasi istiqlol tufayli deb bilaman.

Dildora OTAQULOVA,
Guliston Davlat universiteti talabasi

Poytaxtimizning Hamza tumanida joylashgan 170-maktab qoshida faoliyat ko'rsatayotgan «Yosh ijodkor» to'garagi o'quv yili davomida, ayni ta'til kunlarida ham doimo o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi.

Ayniqsa, tasviriy san'at yo'nalishida musavvirlikning nozik sir-u sinoatlarini o'rganib borayotgan, izlanayotgan tengdoshlaringiz talaygina. Uning Iroda Shokirova, Ilyos Shomirzayev kabi faol a'zolari



YURTIM TO'YIGA TO'YONA



maktabda o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda, ko'rgazmalarda o'z ijod namunalari bilan faol ishtirok etib kelishyapti.

Mazkur bilim dargohini muvaffaqiyatli tamomlagan bu yoshlarimiz kelajakda interyerdizayner bo'lish orzusidalar.

Ziyoda MAVLONOVA, to'garak rahbari,

Munisa SHOKIROVA, tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Yosh musavvir Ilyos Shomirzayev «O'zbekiston – Vatanim manim» deb nomlagan ushbu rasmini yurtimiz to'yiga to'yona qilibdi.

Feruza JALILOVA tayyorladi

Go'zal va so'lim Farg'onaning Xonqizi degan fusunkor qishlog'i bor. Yurtimizning barcha viloyatlari, shaharlari kabi bu yerda ham yoshlar uchun hamma shart-sharoitlar yetarli. Ana shu imkoniyatlardan foydalangan tengdoshlaringiz o'z iqtidorini namoyon etishga harakat qilyaptilar. Qishloqda ijodkor yoshlar ko'p. Bugun ulardan ayrimlarining she'riy mashqlari bilan tanishasiz.



GO'ZALIM QIZLAR

Do'ppisini kiyganda boshga,
Surmasini qo'yganda qoshga,
Yo kirganda o'n sakkiz yoshga,
Malikaga o'xshar o'zlari
Qishlog'imning go'zal qizlari.

To'marislar izdoshlari ham,
Zulfiyaning sirdoshlari ham,
Ko'zlarida ko'rinmaydi g'am,
Malikaga o'xshar o'zlari
Qishlog'imning go'zal qizlari.

Xayol sursa go'zal gulyuzlar,
Mehr ila boqsa shu ko'zlar,
Lol qoladi ko'kda yulduzlar,
Malikaga o'xshar o'zlari
Qishlog'imning go'zal qizlari.

KUYLAGIM KELDI...

Gulzordagi mitti bulbulga qarab,
Muhabbat qadrini gullardan so'rab.
Qalbidagi hisni harirga o'rab,
Ona yurt, madhingni kuylagim keldi.

Tinchlik va birdamlik elchisi – Humo,
Yaqin sirdosh bo'lay senga doimo.
Shoir emasman-u, shu kunda, ammo,
Vatanim, madhingni kuylagim keldi.

Sayr etib bag'ringda yayradim, kezdim,
Rayhon islaridan mehringni sezdim.
Bir siqim tuprog'ing kaftini sevdim,
Ona yurt, madhingni kuylagim keldi.

Maysa erkalanib o'pdi tovonim,
Gullarga burkanib bugun har yonim.
Qalbidagi muhabbat tug'ilgan oni,
Ona yurt, madhingni kuylagim keldi.

MENING ONAM

Quyoshdek yorug' kunim,
Oy kabi oydin tunim,
Guldek mening maftunim –
Mehribon onam.

Xushfe'lsiz bizga har dam,
Otamga doim hamdam,
Doimo bo'ling bardam,
Mehribon onam.

Doim kulib turasiz,
Goho tergab qo'yasiz.
Sog'lik tilab yurasiz,
Mehribon onam.



Akbarali ASQAROV



AJOYIB MASKAN

Adirlar bag'rida ajib maskan bor,
Nomi ham o'ziga monanddir – Zilol.
Tabiati go'zal, borliq betakror,
Insonlarin tilidan tomar misli bol.

Yurtim jamoliga ko'rk bo'lgan maskan,
Quchog'iga chorlar sizni daf'atan.
Odamlari bir lutf ila peshvoz chiqadi,
Qo'li ko'ksida-yu, kalomi salom!

Zebo XUDOYBERDIYEVA

M.QODIROVA

(Boshi o'tgan sonda)



(Hikoya)

– Yaxshisi uyga ketamiz. Shundoq bug'doyzorni kesib o'tsak, Jumavoy cholning bog'idan chiqamiz. Yaltiroq o'rigi shig'il pishib yotibdi, – dedi Ikrom.

Tollar panasiga o'tib, kiyimlarimizni siqib qayta kiygach yo'lga tushdik. O'tob naq peshonamizdan olov sohad. Oyoqlarimiz ostidan ko'tarilayotgan hovur tepada jivirlab, ko'zni tindiradi. Dala o'rtaqidagi bahorda kallaklangan tutlarning yangi chiqqan novdalari yerga soya tashlashga ojiz. Bug'doyzorning doni o'rilib, somoni yig'ishtirilib, o'rni yoqib yuborilgan. Oyog'imiz ostidagi, gir atrofimizdagi zamin qop-qorayib dilga g'ashlik soladi. Qilt etgan shabada yo'q. Bir yoqda qornimiz ochib, ichlarimiz quldiraydi, tomog'imiz tashnalikdan quriydi. Oyog'imni arang

sudrab bosayotganim uchun yo'l unmaydi. Birortamizning gapirgimiz kelmaydi. Hamma o'ziga ohanoboday chorlayotgan Jumavoy cholning bog'iga tezroq yetib olishini o'ylaydi.

Nihoyat, bog' etagidagi omonatgina paxsa devor qarshisidamiz. Devor molhol kirib ketmasligi uchun nomigagina qo'qqaytirib qo'yilgan. Belimdan keladi. Bir sakrab oshib o'tsa bo'ladi.

– Vuy, anavu yoqqa qaranglar,

endigina so'liy boshlabdi. Tuz sepilgan bo'lsa-da, achigan mazasi ko'ngilni aynitdi.

Bog' ichi jim-jit. Boyagi do'zax azobidan so'ng u yerdagi salqinlik, jambil-rayhonlarning xushbo'yidan ko'nglim yayradimi, tanam bo'shshib, supa chetiga sekin o'tirib qoldim. Allaqayerdan suvning shildirashi eshitildi...

– O'ldik, chol anjirlariga suv quygan ekan, hozir kelib qoladi, – vahima qildi

ODAMNING O'RNI

– pichirladi Ismoil, – chol-kampir qish bo'yi olma qoqi shimadi shekilli. Hammamiz o'sha yoqqa o'girildik. Devor chetidagi supa ustiga to'shalgan bo'yraga olma, pomidor qoqi solib tashlanibdi. Og'zimning suvi qochdi.

– Qishni kutib o'tirishga vaqtim yo'q, men uni hoziroq yeb qo'ya qolaman, – devorga tirmashdi Odil.

Ko'z ochib-yumguncha supa oldida paydo bo'ldik. Olmani uch-to'rt kun oldin yoyishgan shekilli, tuppa-tuzuk qoqiga aylaniydi. Ammo pomidor

Ismoil. Ammo hech kim uning gapiga parvo qilmadi. Chunki Ikrom ham, Odil ham, Akrom ham allaqachon daraxt tepasiga chiqib olishgandi. Men esa shu yerda uxlashga tayyor edim.

Shu dam uzoqdan kampirning «chug'urchuq»larni haydagani eshitildi. Men «atas» dedim-u, bir siqim olma qoqini changallaganicha qochib qoldim. Bolalar ham daraxtdan gup-gup tashlab, orqamdan yugurishdi. Ammo baqaloq Akrom ulgurolmadi. U ko'zini chirt yumganicha joyida turaverdi.

– Ha, qo'lga tushdingmi, quyon, – jahil bilan unga yaqinlashdi chol. Shu chog' yetib kelgan kampir joniga oro kirdi.

– Akromjon, bo'ldi bolam, baraka top. Bu yog'ini buvang ikkalamiz yig'ishtirib olamiz, – Akromga ko'zini

Muhabbat HAMIDOVA

qisdi kampir, keyin choliga yuzlandi, – Akromjonni o'rtoqlari bilan yordamga chaqirgandim. Ammo o'rtoqlarining vaqti yo'q ekan. Bir o'zi bo'lsa ham kelaveribdi, baraka topkur. Anavi qirmizi olmagiz o'lgur to'kilib ketayapti, o'ziyam boshini yeb solgan ekan. Men tepaga chiqolmasam, shu bola bilan ikki chelak terib, qoqi qilib qo'ydik, – deb Akromning qo'lga to'rtta olma tutqazdi.

– Hamma ayb sen valatida ekan, o'g'lingning ham doim yoniga tusharding, mana, yuz o'girib ketdi, – chol shunday deb kampiriga o'da g'aylayotganida, Akrom jo'navoribdi.

Darhaqiqat, chol juda qattiqqo'l bo'lib, biror marta ham kulganini ko'rmaganmiz. U ham kampiridek miqti, o'rta bo'y, kichik ko'zlari atrofga ziyrak boqadigan, yozda ham to'n kiyib, etaklarini qiyig'iga qaytarib qo'yadigan sersoqol chol edi. Qulog'iga esa rayhon qistirib yurardi. Mening o'sha rayhonga ham rahmim kelar, nazarimda, bechora qaltirab ketayotgandek tuyulaverardi. Balki chol hamisha ham to'nda yurmaganidir. Biroq, har gal uni eslaganimda, ko'z oldimda shu qiyofada gavalanadi.

– Hoy tirrancha, tishdinga danak chaqma, kemshik bo'lib qolasan...

– Nega daraxtga osilasam, ko'yilginni yirtiding-ku, darmoyed!

– O'q tekkan qarg'adek namuncha qag'illading, quloqni teshvording-ku!

(Davomi bor)

YURT BAYROG'Y YELKADA

Jamoliddin Salimjonov istiqloq tengdoshi. Tabiatan og'ir-vazmin, mulohazali bu yigitcha o'zining tirishqoqligi, mehnatsevarligi bilan tengdoshlari orasida hurmat qozongan. Kikboksing bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Jamoliddin bugungi kunda sportning yetti turi bo'yicha mamlakat chempioni. Jahon chempioni hamda Xitoyda o'tgan XVI Osiyo o'yinlari ishtirokchisi, bir necha xalqaro turnirlar g'olibi bo'lgan qahramonimizga chin ma'noda havas qildik. Yutuqlari bilan yurt faxriga aylangan, sport sohasida muvaffaqiyatlar sari dadil borayotgan Jamoliddinni sizga ham tanishtirgimiz keldi.



Oltin kamar sohibi bo'lish baxti Jamoliddinga ham nasib etdi.

Insonni mudom g'alabaga chorlovchi kuch bu zavq-u shavqdir. Uloqqa kirgan chavandoz yerdan uloqni ko'tarsa, bor ovozi bilan otini betinim alqaydi. Uning: «Barakalla, tulporim» degan hayqirig'i otning zavqini oshiradi.

Jamoliddin Salimjonov har gal maydonlarda yurt bayrog'ini baland ko'targanida, o'zini yuksaklarga parvoz qilayotgandek his etadi. Istiqloq tengdoshi bo'lish har kimga ham nasib

etavermaydigan baxt. Ularning zimmasidagi yurtning nomini dunyoga tanitish mas'uliyati ham yanada kuchliroq bo'ladi.

Olti yoshidan boshlab sportning kikboksing turi bo'yicha shug'ullanib kelayotgan Jamoliddin ilk saboqlarni otasi Qayum aka Mahmudovdan oldi. Dastlab tuman musobaqalarida g'olib bo'ldi. Shahar va respublika bellashuvlariga qadam qo'ygani esa o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usi

yanada ortdi. Endilikda nufuzli musobaqalarda yurt sharafini munosib himoya qilib, shohsupaga ko'tarilmoqda.

Darhaqiqat, yurt bayrog'i yelkadami, g'alabalar mudom hamrohdir bizga!

SENI «SOFIYA» DEYMAN

Yaqinda poytaxtimizdagi «Jar» sport majmuida «Fudokan» karate-do yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston chempionati bo'lib o'tdi. Unda 7 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan sportchilar ikki kun davomida ustozlaridan olgan bilimlarini namoyish etdilar.

Musobaqada Surxondaryo viloyati, Toshkent shahri va viloyati vakillari hamda samarqandlik, buxorolik sportchilar har jihatdan ustun ekanliklarini namoyish etdilar.

Bu galgi musobaqaga fudokan karate-do yo'nalishi asoschisi, qora belbog' 10-dan sohibi, tibbiyot fanlari doktori, professor Ilya Yorganing tashrif buyurishi sportchilar uchun kutilmagan sovg'a bo'ldi.

Ayniqsa, Samarqand shahridagi 31-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Zaynura Teshaye-

ning chiqishlari Yorga janoblarini hayratga soldi. Bu musobaqa Zaynuraning yodidan sira chiqmasa kerak. Ilya Yorga uning kimonosiga dastxat qo'yarkan: «Sening intilishlaring, harakatlaring, o'zingga bo'lgan ishonching nevaram Sofiyani eslatib yubordi. Endi men seni shu nom bilan chaqiraman. Sen hali jahon arenaslarining malikasi bo'lasan», deya alqadi. Zaynura uchun xuddi shu damlar hayotining unutilmas lahzalaridan biriga aylandi.

Musobaqadan so'ng u yetti karra O'zbekiston chem-

pioni degan sharafli unvonga sazovor bo'ldi. Shuningdek, qizlar o'rtasida birinchi bo'lib qora belbog' sohibasiga aylandi. Uning dugonasi – Payariq tumanidagi 6-maktabning 9-sinf o'quvchisi Ozoda Abdusalomova ham qora belbog' sohibasi, 4 karra O'zbekiston chempioni degan sharafli nomga loyiq topildi.

Musobaqada Toshkent viloyati sharafini himoya qilgan Sarvar Rahmatullayev esa musobaqaning eng yosh chempioni sifatida ham m a n i n g havasini keltirdi.

Ikki kun davom etgan chempionatda sportchilar g'oliblik uchun kurashib, katta

yutuqlarga erishdilar. Tomoshabinlarning hayajon va zavqi ham ularnikidan kam bo'lmadi. Musobaqa zalidan chiqib borar ekanman, o'g'ilchasini yetaklab borayotgan onaning gaplari qulog'imga chalindi:

– Bahodir, o'g'lim, sen ham ana shu aka-opalaring kabi polvon bo'lasanmi?

Bolakay onasining orzularidan mamnun bo'lib: «Chempion bo'laman», deya boshini silkitdi. Bahodirning chempion bo'lishiga biz ham ishonдик. Chunki O'zbekiston shubhasiz chempionlar yurtidir.



YOVSOYGA SAYOHAT

Yovsoy – Norguzar tog'i etagidagi xushmanzara va bahavo hududlardan biri. Buloqlar qo'shilishidan hosil bo'lgan soy bo'yida to'rtta yozgi oromgoh joylashgan.

Jizzax Davlat pedagogika institutiga qarashli Bobur nomidagi oromgohda ayni paytda 100 nafar bolajonlar ta'tilni maroqli o'tkazishyapti.

Oromgoh direktori Abdumo'min aka Kushoqov shunday deydi: – O'quvchilarning yozgi ta'tilini mazmunli o'tkazishlari uchun hordiq chiqarish barobarida badiiy ijod, tikuvchilik, musiqa va sport to'garaklariga jalb qilinayotir.

– Men peyzaj janrida rasmlar chizishni yoqtiraman, – deydi jizzaxlik Mushtariy Eshonboyeva. – Oromgohda mazza qilib dam olyapman. Yovsoyning go'zal tabiatini tasvirlab, ko'plab rasmlar chizdim.

Darhaqiqat, bolalar uchun tabiat qo'yninga sayohat – eng qiziqarli mashg'ulot. Ayniqsa, Yovsoy manzaralari har bir odamda o'zgacha zavq uyg'otadi. Sayohat davomida bolalar yurtimizning boy nabotot va hayvonot olami bilan yaqindan tanishib, gerbariylar tayyorlashmoqda.

Shuningdek, «Jizzaxpaxtasanoat» hududiy aksiyadorlik birlashmasiga qarashli «Paxtakor», Zarbdor tumanidagi paxta tozalash korxonasining «Bo'ston» Jizzax viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi tasarrufidagi oromgohlarda ham yuzlab o'quvchilar yoz gashtini surmoqdalar.



SARVAR

KAPALAKKA ROZ

AYTGAN SHOIR



Bolalarning sevimli shoiri Yunus **TOLIB** 70 yoshga to'ldi. Siz uning «Dastgohlar qo'shig'i», «Osmondagi darvoza», «Hovli to'la bolalar», «Yulduzcha», «Boychechak» kabi turkum she'rlari bilan tanishsiz. Ijodkor bobongizni yetmish yoshlari bilan qutlab, yangi she'rlaridan sizga ilindik.

SUHBAT

Oppoq, go'zal kapalak,
Gulzor bo'yab yuribdi.
Birozdan so'ng qarasam,
Gulga qo'nib turibdi.
Uning qanotchasidan
Ushlab oldim men chaqqon.
«Pir-pir»lab der kapalak:
—Qo'yib yubor, o'rtoqjon!
Men guldan-gulga qo'nib,
G'unchani changlataman.
Shunda gullar ochilib,
Bog'chang bo'ladi chaman.
O'rtoqlarim juda ko'p,
Ularga ham tegma hech.
Sen ham bizga o'rtoq bo'l,
Bizdek quvna, bizdek uch!..
Qo'yib yubordim shunda:
—Gulzorimda uchaver!
Do'stlaring ham kelishsin,
Tezroq borib xabar ber.



BIZNING SOYIB AMAKI

Bizning Soyib amaki,
Chekaverib tamaki,
Azobini tortdilar,
Sog'liqni yo'qotdilar.
Bir yo'tal tutib qolsa,
Azob chekarlar rosa.
Go'yoki o'pka ko'chib,
Hech tinim bilmay o'qchib.
O'qchiq, esnoq asli bu,
Tamakining kasri bu,
Yursalar belni rostlab,
Qoladilar halloslab.
Yura olmaslar uzoq,
Darrov bilinar charchoq.
Derlar Soyib amaki:
—Sizlar chekmang tamaki!
Sog'liq ketmasin qo'ldan,
Adashmang to'g'ri yo'ldan.

Ushbu sonda Osimxon Vosixonov chizgan rasmlardan foydalanildi.

O'ZINGNI SINAB KO'R

1. «Sog'lom avlod uchun» ordeni qachon ta'sis etilgan?

- A) 1993-yil mart;
B) 1994-yil may;
D) 1995-yil avgust.

2. Mamlakatimizda qachon «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilingan edi?

- A) 2000-yil;
B) 2002-yil;
D) 2003-yil.

3. «Sog'lom avlod uchun» Xayriya jam'armasi qachon tashkil etildi?

- A) 1993-yil 3-iyun;
B) 1994-yil 20-avgust;
D) 1994-yil 2-sentabr.

Aziz bolalar!
Mustaqilligimiz yillarida juda katta ibratli ishlar amalga oshirilganini yaxshi bilasiz. Xususan, siz kabi navqiron avlodning jismonan sog'lom, ma'nan barkamol bo'lib yetishishingiz yo'lida juda katta sa'y-harakatlar qilindi. Bugun siz bilan birgalikda ayrim voqealarni, sanalarni eslab ko'ramiz.

Ertaklarning sirli olamiga sayohat qilishni istamagan bola yo'q, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Men ham ana shunday bolalardan biriman. Sokin tunda qardron buyijonimning qiziqarli ertaklarini miriqib eshitganman. O'zimni va do'stlarimni ana shu ertaklarga tushib qolgandek tasavvur qilib, tushlarimda goh karvonlar yuradigan sahrolarga, gohida esa qarochilarning boyliklari yashirilgan yovvoyi chakalakzorlarga sayohat qilganman. Hozirda ancha ulg'ayib qolgan bo'lsam ham, baribir mo'jizalarga ishonaman.

yosh yozuvchi qizga omad kulib boqadi. U asarlarini nashriyotlarga olib borganda, ularni «yig'loqi uy bekasining ertaklari» deya rad etishardi. Nihoyat, «Blumsberri» nashriyoti romanni chop etishga qaror qiladi. Asta-sekinlik bilan «Garri Potter»ning sayohatlari, Nogvarts sehrgarlar maktabi haqidagi romani mashhur bo'lib,

kitobxonlarning, ayniqsa, o'smirlarning eng sevimli asariga aylanadi.

1997-yil asar AQSHda chop etilishga tayyorlanadi. 1998-yili asarning uzluksiz davomi «Garri Potter va maxfiy xona», 1999-yili esa «Garri Potter va Azkaban mahbusi» asarlari dunyoga keladi.

Buyuk Britaniya kitob akademiyasi uni «Yil yozuvchisi» deya ta'rif etadi.

Nodirbek NISHONOV

JONIMNING SUVRATLARI

(Adabiy qaydlar)

Bolalar shoirlarining aytadigan so'zining mazasi kamida sutning mazasiga, she'rining «kaloriyasi» qaymoqning kaloriyasiga teng bo'lishi kerak.

Yozib bir quvonaman, yozganlarimni yirtib yana bir quvonaman. Shoirlik degani balki shudir.

Bolalar she'riyatidan kattalar she'riyatining isi kelib turishini tabriklash kerak.

Shoirlik ba'zan yozmaslikka ham o'xshab ketadi.

Yaxshi kitob ruhni poklaydigan malham.

Abdurahmon AKBAR

Kunlarning birida hayotimga ana shunday sir-u sinoatlarni, sayohat va mo'jizalarni o'zida mujassam etgan bir kitob kirib keladi: «Garri Potter va hikmatlar toshi» asarini o'qib chiqqanimdan so'ng, men ham sehrgarlar maktabining o'quvchilari bilan do'stlashishni, yovuz trollar bilan jang qilib, Garri Potter misoli yuksak tuyg'ular uchun kurashishni orzu qilardim. Bu orzular hali-hamon o'z kuchini yo'qotmagani bois, Garri Potter haqidagi asarlar muallifi Djoan Rouling haqida so'zlab bermoqchiman.

Djoan Ketlin Rouling 1965-yil 31-iyulda kichik ingliz shaharchasi Chippingda dunyoga keladi. U bolaligidanoq adabiyotga mehr qo'yadi va olti yoshida kasal quyoncha hamda uning do'stlari haqidagi ilk asarchasini yozadi.

Djoan universitetda o'zi yoqtirmaydigan «fransuz tili» mutaxassisligi

bo'yicha tahsil oladi. Edingburgdagi kichik uyida ishsiz pulga muhtoj bo'lib yashaydi. Aynan mana shu og'ir damlarda u ko'p qiyinchilik ko'rgan va oxir-oqibat buyuk sehrgarga aylanadigan bolakay haqidagi romanining dastlabki loyihalarni tuza boshlaydi.

Shundan so'ng, hayotda faqat omadsizlik so'qmog'idan qadam tashlovchi

BUYUK FAYLASUFLAR SABOQLARI

Oy va Quyosh tutilishining sabablarini aniqlab bergan bir donishmand: «Falsafa Falesdan boshlanadi, u birinchi edi», degan ekan. Keling, uning so'zlariga quloq tutamiz:

- Eng go'zal narsa nima?
- Odam.
- Eng tez narsa nima?
- Aql. U hamma narsani ortda qoldiradi.
- Hamadan donoroq narsa-chi?
- Vaqt. Chunki u hamma narsani oydinlashinga qodir.



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchi:
Ma'mura MADRAHIMOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Tahrir hay'ati:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilibiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 33324
Buyurtma N: J 2174

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'armasi.